

Dunyoning butun hikmatlari kitobdadir

6-bet



2008-yil
4-avgust
N:31
(66676)

Oromgoh bog'idagi olmalar
biram mazali...



Aziz bolajonlar!
Eshitmadim,
demanglar!

«Tong yulduzi»
tahririyati
«Olimpiya yozi»
tanlovini o'tkaz-
moqda. Unda ish-
tirok eting va
g'olib bo'ling!

3 - bet



«Tong yulduzi»
BIZNIKI...

5 - bet

Aziz o'quvchilar!

Eng sevimli va eng
arzon gazetangizga
yilning ikkinchi yarmi
uchun

OBUNA

davom etmoqda.
Istalgan aloqa
bo'limlarida
qadrond gazetangizga
obuna bo'lishingiz
mumkin.

FAZOGIR VARRAKCHILAR

o'qishi, namunali xulqqa ega bo'lishini qattiq nazorat qilib boramiz. Astronomiya, fizika, matematika, kimyo, hatto geografiya fanini ham puxta o'zlashtirishlarini talab qilamiz. Chunki bu bilimlar raketa modelini yaratishda kerak bo'ladi. O'zları yasagan samolyot modellariga yonilg'ini ham o'zları tayyorlashadi.

- Bolalar ko'plab musobaqalarda qatnashib, markaz sharafini munosib himoya qilishib, hamisha peshqadamlar safida bo'lishining boisi nimada?

Birinchidan, bu yerdagi bolalarning barchasi koinotga qiziqadi. Ularning qiziqishi oddiy bir havas emas. Yana bir tomoni, viloyat «Vatanparvar» tashkiloti har doim amaliy yordam berib kelishi tufayli ko'plab yutuqlarga erishyapmiz, deb o'yayman.

Biz borgan kunimiz to'garak a'zolari ertalabdanoq ishga qizg'in kirishib ketishgan ekan. Ularning harakatlaridan zavqlandik.

- Biror musobaqaga tayyorgarlik ko'ryapsizlarmi?

- Ertaga bolalar uyi tarbiyalanuvchilar dam olayotgan oromgohga boramiz. O'zimiz yasagan raketa va samolyotlarni uchishini ko'rsatamiz. Keyin esa o'sha yerdagi bolalar bilan raketa modelini birgalikda yig'ib, o'zlariga sovg'a qilamiz. Ajab emas, ular ichidan ham qiziquvchilar chiqib qolsa.

Markazdan chiqar ekanman, ko'nglim g'ururga to'ldi. Yosh raketa modelchilar O'zbekiston, hatto Osiyo championatida qatnashib, g'oliblikni qo'liga kiritishganiga qaramay ter to'kib ishlyshyapti, izlanishyapti. Yillar o'tadi. Bir kun kelib O'zbekistondan chiqqan fazogir varrakchilarning orzulari yulduzlarga yetsa, ajabmas. Fazogirlar bir paytlar biz sizga hikoya qilgan to'garak a'zosi bo'lib chiqsa, sira ajablanmang.

Magola sahifalanayotgan chog'ida yana bir voqebo'lib o'tdi. 25-iyul kuni O'zbekiston Fanlar akademiyasida yosh raketa modelchilar va ularning ustozlari ishtirokida tadbir o'tkazildi. Anjumanda Solijon Sharipovning ishtirok etishi davraga alohida zavq bag'ishladi. Tadbir so'ngida Solijon aka «Tong yulduzi» gazetasi mushtariylariga esdalik uchun o'zdastxatini taqdim etdi.

«Tong yulduzi» gazetasining qadrlari o'quvchilar!

Ustozlaringizdan puxta bilim olishga shoshiling, samoviy balandliklarga intiling.

Orzularingiz amalga oshishini tilab, ehtirom bilan kosmonavt-uchchuchi, Rossiya qahramoni, polkovnik Solijon SHARIPOV



Dofirish uchun
rojessor - Tong yulduzi
Orenburgning qadrlari
zamonani uchun
jurnalist, o'qituvchi
va xalqaroqchi borilish
o'squvchilar
baqtan mesann
O'y basovchilari
Jurnalist, xalqaroqchi
Tadbir bo'soni
nosibine O'zbek
Wafafoddin Olibekov
15.07.2008.



Fayzullo DO'ST

QUVONCHLARGA QALBIMIZ TO'LAR

Istiqlol ilhomlari
Misoli shamolda uchgan kapalak,
Hayot aylanadi misli charxpak.
Quvnoq bolalikda ilm izlasak,
Bizni kutmoqdadir nurli kelajak!

Chorlamoqda unsiz nurafshon yo'llar,
Unda hayot zavqi o'zgacha bo'lar.
Quvonchlardan mudom qalbimiz to'lar,
Bizni kutmoqdadir porloq kelajak!

Majnuntol taqibdi yashil jamalak,
Dillarda yashasa orzu va tilak.
Yurtni obod etar ko'p arslon bilak,
Bizni kutmoqdadir buyuk kelajak!

Muxlisa AZIMOVA,
Toshkent yuridik kolleji 2-bosqich talabasi

POYGA

- Elshodbek akam bilan poysa o'ynaymiz. Akam velosipedni tez haydaydi. Unga havasim keladi. Katta bo'lganimda, men ham dadajonimga ikki g'ildirakli velosiped oldiraman va undan o'zib ketaman, - deydi uch yoshli Diyorbek.

Ha, bolajonlar, ajab emas, kelajakda bu aka-ukalardan mashhur velosportchilar yetishib chiqsa.



MENING O'QUVCHILARIM

Yetti yildirki, 227-maktabning 9-«G» sinfi o'quvchilariga rahbarlik qilib kelmoqdaman. Sinfimda 27 nafar o'quvchi bor. Ularning teran nigoqlaridan dillaridagini so'zsiz tushunishga intilaman. Men qaysi sinfda dars bermay, eng avvalo, chiroqli ko'zlarini umid bilan tikib turadigan o'quvchilarim bilan yaqindan tanishib olishga harakat qilaman. Inson dunyoga kelibdiki, unda ma'lum bir qobiliyat shakllanadi. O'quvchilarimdag'i turli sohaga bo'lgan qiziqishlarini, havasmandliklarini aniqlab, qaysi sohaning egasi bo'limgan, avvalo inson bo'ling, deb ularni qo'llashga harakat qilaman. Darsimni boshlashdan oldin yil davomida nimalarga e'tibor berishim lozimligini rejalashtirib olaman. Sho'ir va yozuvchilar haqida ma'lumot berar ekanman, ularning asarlari va ijod namunalardan keltirib, mazmunini chiroqli so'zlar orqali o'quvchilarimiga yetkazishga intilaman.

Menimcha, muallim har yangi niholga yangicha e'tiborda bo'lishi kerak. O'quvchilarimning ma'naviy dunyosini shakllantirishda ishtirok etayotganimdan g'ururlanaman. Umuman, o'qituvchi bo'lganim bilan faxrlanaman. O'quvchilarim biroz sho'x, quvnoq va to'polonchi bo'lishsa-da, ammo birbirlariga mehribon va g'amxo'rdirlar. Bu yil ular maktabni bitiradilar. Ishonchim komilki, mening o'quvchilarim maktabda olgan bilimlari bilan hayotda qoqilmaydilar.

Dilfuza TO'XTAXO'JAYEVA,
Toshkent shahar, Hamza tumani dagi
227-maktab o'qituvchisi

DIQQAT, YANGI TANLOV!



«Tong yulduzi»



Aziz bolajonlar! Sanoqli kunlardan so'ng Pekin shahrida yozgi Olimpiya o'yinlari boshlanadi. Tarixi eramizdan avvalgi asrlarga borib taqaladigan Olimpiya o'yinlari bugungi kunda butun dunyo diqqat markazidagi tadbirlardan biriga aylandi. Xabaringiz bo'lsa, taniqli jurnalist Flora Faxrutdin loyihasi asosida

«Olimp sari yo'l» tanlovi bo'lib o'tdi. Tanlovda qatnaşgan ko'plab ishtirokchilar qimmatbaho sovg'alarga ega bo'ldilar. Yaqinda tahririyat mehmoni bo'lgan Flora opa mazkur tanloving ikkinchi bosqichi «Olimpiya yozsi» tanlovini o'tkazish haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdilar. Tanlov haqidagi barcha savollarga javob berdilar.

— Flora opa, insonda, ayniqsa, yoshlarda boshlagan ishining samarasini tezroq ko'rish istagi kuchli bo'ladi.

— Albatta, yoshlardagi shijoat kishini quvontiradi. Tanlovga muxlislardan kelgan xabarlar gazetada chop etiladi. Eng yaxshi ishlar tanlab olinib, g'oliblar qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

— Bu galgi tanlov muddati qisqaroq emasmi?

— Tadbirimiz Pekin va boshqa shaharlarda Olimpiya o'yinlari boshlangan kundan boshlab, o'n to'rt kun mobaynida bo'lib o'tadi. Bu galgi tadbirimiz xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Sport bayramlari bog'chalar, oromgohlar va mahallalarda bo'lib o'tadi. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan sportchilar tadbirlarda ishtirok etadilar.

— «Sportsiz bir kun ham o'tmasin» degan shior har kimning ko'nglidan joy olar ekan-da?

— Albatta, sport o'z og'ushiga barcha xohlovchilarni jalb etadi. Asosiy maqsad esa g'alabalardan havolaniib ketmaydigan, o'ziga ishonchi kuchli bo'lgan bolalarni tarbiyalash.

— Mushtariylar bu kunlarda o'z hududlarida bo'lib o'tgan sport tadbirlari haqida yozib sovrindor bo'lishlari mumkinmi?

— Albatta, bunga shak-shubha yo'q. Bugun sport zallarida shug'ullanayotgan o'g'il-qizlar ertangi olimpiadachilardir. Hozircha esa barchani «Olimpiya yozsi» tanloviga taklif yetamiz.

O'n yetti kunda olimpiada o'yinlari niyoyasiga yetadi. Bu kunlar ustozlar va sportchilar uchun ulkan sinov maydoniga aylanadi. Muxlislar uchun esa olam-olam zavq bag'ishlaydi. Biz ham olimpiadachilarimizga «Pekin - 2008» o'yinlaridan sovrindor bo'lib qaytishlarini tilab qolamiz.

Suhbatdosh:
Yusuf FAYZULLO



«Konstruktor» oromgohidan qaytishda Burchmullo qishlog'ining yo'l yegasida joylashgan O'zbekiston temiryo'l mashina ta'miriga qarashli «Burchimullo» oromgohiga kirdik. U yerda bizni oromgoh direktori Dilyara Zagirova va katta tarbiyachi Ravshan Abdunazarov samimiy kutib olishdi. Ularning bolalarga bo'lgan beqiyos mehri shundaygina ko'zlaridan bilinib turardi.

O'z kasbida go'zallik, mehr, qiziqish cheksizligini ko'rib, Habib akadek oshpazlarga havasimiz ortdi.


Diyosbek YUNUSOV, 10 yosh:

— Oromgoh yaxshi. Ammo uydagilarni sog'inib qolyapman, — deydi yig'lamsirab. — Bolalar bilan cho'milish, bog'dagi mevalardan to'yib-to'yib iste'mol qilish maroqli, — deydi do'stingiz.

Boburjon XONBOBOYEV, 11 yosh:

— «Burchmullo» oromgohida bog'lar ko'p. Har kuni shirin olma, shaftoli, tog' olchasi va sariq olchalarni to'yib

YULDUZLARNING GO'ZAL YOG'DUSI



Tadbirlarda



sport



musobaqalarida faol bo'ldik

— Oromgohda bolajonlarimizning ikkinchi mavsum ham tugadi. 310 nafar bola miriqib dam olishdi. Ular uchun yaratilgan sharoitlar boshqa oromgohlardan keskin farq qiladi, — deydi oromgoh direktori Dilyara opangiz. — Oromgohimizni yo'l bo'yida joylashganining o'ziyoq bolalarni quvontiradi. Ularni ko'rgani kelgan ottonalari hech qynalmay ketadilar.

Qarang, — deya oromgohning o'ng tomonidagi bog'larga ishora qiladi rahbar.

— 10 hektar yermi egallagan oromgoh atrofini faqat mevali bog'lar tashkil etib turibdi. Bolalar shirin mevalarni yeb tugatolmasdan, hatto uylariga olib ketishga ham tayyorlab qo'yishyapti.

Bu yerdagagi hamma jihozlar, mebellar yangi. 8 ta guruh uchun alohida shinam yotoqxonalar mavjud. Har bir yotoqxonanining ichida dush o'rnatilgan. Suzish havzasi, futbol maydoni, basketbol va har bir guruhsda stol tennisi bor.

Kun peshinga yaqinlashib qolganiga qaramay, oromgohda tog' havosi dilga yoquvchi mayin shabboda ila ko'nglimizni xushnud etardi.

— 23 yildan buyon oshpazman, — deydi Habib aka Sodiqxo'jayev. — O'qish mavsumida maktabda oshpazlik qilsam, xavotirimning zo'ridan, azbaroyi bolalar och qolmasinlar, deb ularning ortidan kapgir, cho'michimni ko'tarib oromgohlarga yetib boraman, — qo'shimcha qildi bosh oshpaz kulib, — Bugun tushlikka no'xat sho'rva, guruchli, go'shtli ovqat va bodringdan salat tayyolayapmiz. Kechki ovqatimizni o'choqda tayyorlamoqchimiz. Bolalarimiz oshni xush ko'rishadi.

yeymiz. Tog' havosi tozaligi uchun ishtahamiz karnay, — deydi u. — Tarbiyachilarimizdan Kamila va Natalya opalar bizga doimiy hamroh, tadbirlarda faol ishtirok etadilar.

— Uch kundirki, oromgohimizda spartakiada sport musobaqlari davom etyapti, — deydi Ravshan akangiz. — 2-mavsumda 310 nafar bolalarni uylariga kuzatdik, 3-mavsumga tayyorgarlikni boshlab yuborganmiz. Yana yangi do'stlar bilan uchrashib turganimizdan mammunniz.

Barcha guruh bolalari oromgoh spartakiadasida qatnashyaptilar. Suzish, tennis, shaxmat-shashka, futbol o'yinlarida bir-birlaridan ortda qolmayaptilar. Ayniqsa, suzish musobaqasida Lera Antonova, Anya Zagumenednikova kabi qizlarimiz oromgoh rekordchilaride degan nomga ega bo'lishdi.

Zangiota
tu man i dan
kelgan Zilola va
Nozimaga esa
eng yoqqani
halinchak
uchish. Ular
halinchakda
uchib, miriqib
suhbat qurishar
ekan.



Qizlar kelgusi yilda ham ushbu oromgohda dam olish niyatida. Chunki oromgoh ularga juda yoqibdi.

Bolalar, oromgohlarda dam olayotgan tengoshlarining bilan birga bo'lgan chog'imiz ularning ko'zlarida quvonch, yuraklarida cheksiz shuurni sezdir. Yurtining betakror go'zalligi va hikmatlaridan baxtiliyor bolalarning baxtli damlari. Vatanni sevish ibodat ekanligini anglab, qalqlariga imonnini toj qilgan bolajonlarimizning dilida oyning olibligi-yu, yo'ning uzoqligidagi sir halovat bermasdi. Bolalik osmonida raqs etib nur taratayotgan yulduzlarning betakror yog'dusi ularning allaqachonlar o'ziga mahliyo aylagan edi. Oy olibligini, yo'l uzoqligini bildilar. Lekin har kecha bolalikning baxtli onlarida osmonidan to'kilgan yulduzlar raqsi bilan oshno bo'lganliklarini unutmadiilar.

Feruza SOYIBJON qizi va
Ma'mura YIGITALI qizi tayyorlashdi

OLTI TILNI BILADIGAN AKTRISA



So'radilar:

— Kimni to'g'ri inson deyish mumkin?

Javob bo'ldi:

— Yoshlikdan o'z yo'lini topgan kishini!

Tanishing: Zamira Beshimova. Yosh aktrisa. O'nga yaqin badiiy filmlarda turli rollarni ijro etib, ko'plab muxlislar ortirgan ijodkor qiz.

— Yo'lingizni topganingizdan baxtiyorsiz, deb o'layman!

— Xuddi shunday!

Men uchun uning o'ziga xos xislatlari muhim edi. Va bir narsadan xursand bo'ldimki, u birovlarning ko'magi, qo'llab-quvvatlashi bilan emas, balki o'ziga bo'lgan ishonchi bilan kasb maydonida olg'a boryapti. Ishonchda gap ko'p. Insonda ishonch bor ekan, u soxtalikdan nari yuradi. Xalqqa, elga shunisi kerak.

— Pulingiz ko'payib, boyvuchcha bo'lib qolsangiz, birinchi o'rinda nima ish qilgan bo'lardingiz?

— O'zbekistonning barcha bolalariga ertak kitoblar sovg'a qilgan bo'lardim. O'zingiz bolalarga kitob sovg'a qilganmisiz?

— Albatta, shu yilning o'zida 15 mingdan ortiq kitobni bolalarga, ota-onalarga sovg'a qildik.

— Men undan ko'p kitoblarni sovg'a qilsam, deyman.

Niyatingizga yeting!

Suhbatdoshim samimiy bosh silkiydi.

Sezib turibman, aziz bolalar, Siz uning hayoti bilan qiziqayapsiz. Shu to'g'rida so'ragan edim, uning o'zi biyron gapirib ketdi. Va men shu o'rinda, uning o'zi to'g'risidagi gaplarini keltirishdan oldin yoshlik yillarimni, tengqurlarimni esladim: bizning tengqurlar uchun bunday shart-sharoit va imkoniyatlar yetib bo'lmas cho'qqidagi orzular edi. Kino sohasini oling. Unda-bunda, bitta-ikkita yosh zo'r urinishlar orqali ekranga chiqib qolmasa, boshqalari paxta dalasidan nariga o'tolmasdi. Bugun milliy kinolarimizni ko'ring. Qanchadan-qancha umidli yoshlarimiz o'zbek kinosining yuksalishi uchun mehnat

qilishyapti. Bu qanday yaxshi. Xuddi shu yoshlardan ertaga Gollivud rejissorlariga, aktrisalariga o'xshash iste'dodlar yetishib chiqishi aniq. Zamira Beshimovaning bugungi sa'y-harakatlarini ko'rib, men uning kinosan'atimizning ana shunday zahmatkashlaridan biri bo'lishiga ishonib, shu suhbatni uyuştiriyapman.

— Uch yoshimdan raqsiga qatnaganman, — deydi u. — Qiz bolaga raqs mumkin emas, deb taqiqlab qo'yishdi. 12 yoshimda «Tumor» teatr studiyasiga yashirinchcha qatnay boshladim. Ustozim Rustam Jo'rayev juda ko'p yordam berdilar. Ko'rik bo'ladigan kuni ota-onamni teatrga taklif etdim. Juda hayajonlanib, qo'rqib turgan edim. Lekin chiqishim ularga yoqdi. Shundan so'ng teatrda qolib, o'qituvchilik qildim, televideniyeda lavhalar tayyorladim. Rus, ingliz, arab, fransuz, koreys tillarini o'rgana boshladim. Ayni kunlarda Toshkent Davlat musiqali komediya teatrida ishlayapman. «A'lo FM»da qatnashib turibman.

— Rus tilida rollarda chiqar ekansiz, qiyin emasmi?

— Kasbingiz o'zingizga yoqsa, uning qiyinchiligi bo'lmaydi. Aksincha, undan rohat topasiz.

U beg'araz kuladi.

— O'zingiz ham bilar ekansiz.

— O'zingizdan qolar gap yo'q, deng!.. Yaxshi!

Lekin, ayting-chi, qizlar uchun aktrisa bo'lish og'irlilik qilmaydimi?

— Kino mening orzuim. Bolaligimda uyda rollar ijro etib, ota-onamni xursand etardim. Men uchun og'irligi yo'q.

— Boshqa narsalarga qiziqmasdingizmi?

— Nega qiziqmas ekanman. She'rlar yozganman, ovqat pishirib, bichish-tikishni ham eplaganman. Qiz bolaga ham qirq hunar oz.

— Hozirgi yigitlarga yetmish hunar oz!

U kula turib:

— Zamon shuni talab qilayotgan ekan, yigitlar buni uddalashi kerak.

— Shundan kelib chiqib, bir savol bersam: «Qor qo'ynida lola» filmida bosh rolni o'ynadingiz. Tanlov...

— Tanlov juda og'ir bo'lgan edi. O'ylab ko'ring, unda oz emas, ko'p emas, ellikta qiz o'zini sinab ko'rdi.

— Birinchi roldan so'ng yosh aktyorlar o'zgarib qolishadi. Siz-chi?

— Uyga kelsam, dugonalarim: «Zamira, o'zgaribsansmi?» deyishdi. Dastlab, bundan uyaldim. Keyin bilsam, bosh qahramonning odatlari menga yuqqan ekan. Oshirib aytganda, «Qozonga yaqin yursangiz, qorasi yuqar...» ekan haqiqatan ham.

— Lekin bu tom ma'noda yaxshi qozon... Endi boshqa savolga o'tsak. Qaysi muktabda o'qigansiz?

Sizday qizlar birinchi galda muktab davrini, ustozlarini eslashardi.

— Men endi muktabim to'g'risida gapirmoqchi edim. U qaynoq davrlarni, sinfdoshlarni, mehribon ustozlarni unutib bo'ladimi? Ustozlarim — matematika o'qituvchimiz Dilbar Ikromova, Bahriniso Yusupov aillardan minnatdorman. Dugonam Umida bilan bir umr sirdoshmiz. Rejissorimiz Ayub Shahobiddinovdan qarzdorman. Aktrisa Zulxumor Mo'minovadan ko'p narsalarni o'rgandim. Unga katta rahmat.

— Ayni kunlarda nima ishlarni bilan mashg'ulsiz?

— «To'y», «O'tov» filmlarida rollar ijro etdim.

— Faqat shumi?

— G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida «Zamonaviy aforizmlar» kitobimni nashrha tayyorlayaman. She'rlar mashq qilib turibman.


— Anglashimcha, uzoq kelajakni ham nazarda tuyapsiz...

— Albatta. Suv bir joyda turmaydi-ku! Odam ham qariydi. Kuchdan qoladi. O'shanda falon aktrisa birovlarga muhtoj bo'lib qolibdi, deyishlarini xohlamayman. Qiz bolaga qirqta hunar oz, deganimda ham shuni nazarda tutgan edim.

— Biz esa sizga baxtli kelajak yor bo'lishini tilaymiz. Bu yurtda otaxon-onaxonlar doimo hurmatda. Sizning kechishiga ishonamiz. O'zbek qizining ovozi Himolay tog'laridan oshib, uzoqlarda baralla yangrab tursin!

— Rahmat! «Tong yulduzi» mening sevimli gazetam. Uni butun O'zbekiston bolalari sevib o'qiydi. Ijodiy ishlaringizga baraka tilayman.

SHAHNOZA suhbatlashdi



Badia

O'g'lim, yodingda bo'lsa, bir kun uymizda chiroq o'chib qoldi. Hammamiz sham yorug'ida ovqatlandik va uzoq vaqt suhbatlashdik. Avvallari bu paytda kimdir oynayi jahonni ko'rар, kimdir radio eshitar, kimdir dars qilar, xullas, hamma o'zi bilan o'zi

ovora bo'lardi. Suhbatlasha turib hammalaring o'z fikrlaringga ega, kap-katta bo'lib qolganlarindan xursand bo'ldim.

Aytishadi-ku, vaqt yugurkdir. Goh uning shitob bilan o'tishini anglaguningcha umr poyoniga yetib qolarkan. Shu bilan birga aytish kerakki, hayot shavqatsiz, bir bor xato qilib o'zingni o'nglaguningcha hammasi tugab bo'ladi.

Baxtiyor kunlar tez o'tadi, ammo qayg'uli damlar, yelkangga ortilgan zil-zambil xarsangday ming bor zo'riqtiradi, azob va iztiroblar yashini yurak-yuragingni qirqib qaqqhatadi.

Mening ham hayotimda bayramona kunlar, motamsaro lahzalar ko'p bo'lgan. Bir rivoyat bor. Bir o'tinchi har kun tog'dan o'tin tashir ekan. Bir kun o'tin orqalab kelayotib, yukning og'irligidan yuzturban yiqlibdi va o'krab:

— Ey, Xudo, bu azoblardan qachon

qutulaman, kel, yaxshisi jonimni ol! — debdi. U hali yerdan boshini ko'tarmay, tepasida farishita Azroil paydo bo'libdi:

— Mana, men keldim, nima gaping bor? — desa, o'tinchi chol:

— Yo'q, yo'q, hech narsa deganim yo'q. Shu o'tinni yelkamga qo'yib yuborolmay-sizmi? — degan ekan.

Haqiqatan ham hayot go'zal va hammaning yashagisi keladi. Va hech birimiz mana shu o'tinidan ortiq emasiz. Hatto Navoiy bobomiz aytadi:

*Kim ko'rди ekan jahonda ayo xushluq,
To bir kishi aylagay tamanno xushluq.
Yuz yilda bir hora erdi paydo xushluq,
Omadadurur, yonida yuz noxushluq.*

Kimsan, Navoiydek odam, hayotda xush lahzalarning naqadar oz ekanligini e'tirof etayotgan ekan, biz umrdan xushluq lahzalarni ko'proq talab qilishimiz,

boshimizga faqat va faqat mushkulotlar va ortiqcha zo'riqishlarnigina olib keladi.

Senga qiladigan nasihatlarimdan birey mehnatkashlikni o'rgan. Mehnat, baxtiyor kunlarda ortiqcha kibrdan saqlasa, mushkul damlarda tushkunlikdan asraydi. Aravangni chohdan asta-sekin sudrab olib chiqib ketadi. Mehnat — bug'doyni ekmay turib, hosilni kutishni emas, bug'doyni ekib, oziqlantirib, parvarishlab, so'ng, hosilni o'rishni o'rgatadi.

Men ham seni, bir kun ulg'ayib, o'zi odam bo'lib ketar, desam, xato qilaman. Odam daraxt bo'lsa, farzand uning mevasi deyishadi. Keyin vaqt kelar ekanki, mevasiga qarab daraxtgaba berishar ekan. Men o'zim dehqon farzandi bo'lganim uchun dehqoncha fikrlayman va hech qachon hayotni rohatdan iborat deb o'ylamayman.

Muhammad ISMOIL

Davomi keyingi sonda

«TONG YULDUZI» BIZNIKI...

«Tong yulduzi» mening eng sevimli gazetam! Tahririyatimiza kelayotgan maktublarning aksariyati ana shunday jumlalar bilan boshlanishi bizni juda qovontiradi. Lekin bu gaplardan xotirjam tortish fikridan yiroqmiz. Negaki, zamonamizning sinchkov, ziyrak o'g'il-qizlarini biror narsa bilan hayratlantirish, ajablantirish, boshqacha aytganda, ular bilan «tillashish»ning o'zi bo'lmaydi. Gazetaning yana-da qiziqarli, o'qimishli chiqarish, mundarijasini boyitish uchun astoydil harakat qilyapmiz. Bu borada gazetxonalarimizning fikr-mulohazalari, takliflari juda asqotadi bizga. Shu maqsadda ayrim tengdoshlaringizning fikrlari bilan qiziqdik:

FOYDADAN HOLI BO'LMASDI

*Furqat KARIMOV,**Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani, Boyovut qishlog'i:*

— «Tong yulduzi» — sevimli nashrim. Ayniqla, yozgi ta'til kunlarida u mening eng yaqin hamrohimga aylangan. Sahifalarining rang-barang, yana-da qiziqarliroq chiqishi uchun takliflar kiritmoqchi edim:

1. Tahririyatda taniqli bolalar shoirlari, adiblari bilan ijodkor yoshlari uchrashuvlari tashkil etilsa va gazeta sahifalarida e'lon qilinsa.

2. Oramizda ijodkor yoshlari juda ko'p: kimdir she'r qoralaydi, boshqalari ertak va hikoyalar yozadi. Tabiiyki, bunday ijod mahsullari kamchiliklardan holi bo'lmaydi, albatta. Gazeta sahifalarini orqali taniqli bolalar adiblari, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining chiqishlari tashkillashtirilsa, ular she'r yozishning o'ziga yarasha qonun-qoidalari haqida yoki ertak va hikoyalar yozishda nimalarga e'tibor berilishi lozimligi haqida maslahatlar berishsa, foydadan holi bo'lmasdi.

QIZIQARLI MA'LUMOTLAR KO'PAYS...

Javohir RAHMONOV, Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi:

— Maktabimiz qoshida tashkil etilgan «Zakovat», «Yosh geograflar» to'garagi a'zosiman. Klubimiz a'zolari bilan maslahatlashib, to'garak mashg'ulotlarida ustozimiz Asliddin aka Boliqulovdan o'rgangan qiziqarli ma'lumotlarimizni gazetaga yo'llashga ahd qildik. Umid qilamizki, bunday ma'lumotlarni tengdoshlarimiz zo'r qiziqish bilan o'qib boradilar. Gazeta sahifalarida ana shunday ma'lumotlar ko'proq berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi:

Hindistonning yermay-doni shunchalar kattaki (650 ming km. kv. ga yaqin), unda Fransiya, Avstriya va Shveytsariya o'xshagan uchta davlatni bemalol joylashtirish mumkin.

Himolay tog'larining eng baland cho'qqisi Jomolungma (8848 m) hisoblanadi. Uni 1830-1856-yillarda o'rgangan ingliz polkovnigi Jorj Everest nomi bilan ham atashadi. Mahalliy aholi esa «Sagarmatxa» deb ataydi. Bu nom «borliqning onasi» degan ma'noni anglatar ekan.

1998-yil 22-mayda o'zbekistonlik alpinistlar ham Jomolungmani zabt etib, uning eng baland cho'qqisiga yurtimiz bayrog'ini o'matishga musharraf bo'lishdi.

CHIZGANLARIM SIZGA MA'QULMI?

Asolat PO'LATOVA, Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 29-o'rta umumta'lum maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi:

— Qadrdonim «Tong yulduzi»! Ushbu maktubni Jizzax viloyatining Jarg'oq qishlog'idan yo'llayapman. Gazetangizning har bir sonini, ayniqla, undagi ertak va hikoyalarini maroq bilan o'qiyimiz.



Bizda bir taklif bor: gazetada chop etilayotgan har bir maqolaning mavzusiga moslab rasmlar ishlansa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Axir «Tong yulduzi» 8 yoshidan 18 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlarning sevimli nashri-da. Quvnoq rasmlar esa o'quvchining, ayniqla, kichik yoshdagi gazetxonalarining e'tiborini tortib, kayfiyatini ko'taradi.

Oramizda rasm chizishga ishtiyoqmand o'g'il-qizlar juda ko'p. «Rasmlar ko'rgazmasi» rukni ostida ijodimizdan namunalari berib turilsa, tasviriy san'atga bo'lgan mehrimiz yana-da ortadi.

Men ham o'zim chizgan rasmlarimdan tahririyatga yuboryapman, tengdoshlarimga yoqadi, degan umiddaman,



TANLOV E'RON QILINSA...

Shahlo SIDIQOVA,

S.Sirojiddinov nomli akademik-litseyning 112-guruh o'quvchisi: — Yaqinda bir manbaada o'qib qoldim: hozirgi kunda yurtimizda 611 dan ziyod gazetalar chop etilayotgan ekan. Lekin ana shu nashrlar orasida «Tong yulduzi»ning tutgan o'mi alohida ahamiyatga egadir. Bu birgina mening emas, aksariyat, litseyimiz o'quvchilarining fikridir. Chunki zamon bilan barobar qadam tashlayotgan bu gazetani barchamiz katta qiziqish bilan o'qib boramiz.

Uning sahifalarida o'zbek adabiyoti durdonalaridan parchalar, mashhurlar hayotidan lavhalar berib borilsa, yaxshi bo'lardi. Kelasi yili poytaxtimiz Toshkentning 2200 yilligini keng nishonlaymiz. Shu munosabat bilan «Toshkentim — ona shahrim» nomli insholar tanlovi e'lon qilinsa, unda bajonidil ishtirot etardik.

XOLISONA BAHО KERAK

*Dilbar RAJABOVA,**Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi Do'simbiy qishlog'i:*

— Gazetani muntazam o'qib, kuzatib boraman. Tengdoshlarim asosan qo'liga kiritayotgan yutuqlari, yaxshi shart-sharoitlari haqida yozishadi. Bu juda quvonarli, albatta. Lekin ularga qarata: «Yutuqlar o'zimizni, lekin kamchiliklarimiz ham yo'q emas-ku. Ular haqida ham yozib, mutasaddi amakilarimiz, tengdoshlarimiz hukmiga havola qilsak, tezroq yechimi topilarmidi», degim keladi. Tahririyatga maqola yo'llayotgan o'g'il-qizlarning aksariyati kelgusida jurnalist bo'lish ishtiyoqi bilan yashashadi. Haqiqiy jurnalist esa mard, to'g'riso'z inson bo'lishi, tevarak-atrofdagi voqe-a-hodisalarga xolisona baho berishi kerak. Shundagina u jamiyat ravnaqiga hissa qo'sha oladi.

«GAZETADAN KEMA YASAMA, BOLAM!»

*Abbosjon OLIMJONOV,**poytaxtdagi 219-maktabning 5-sinf o'quvchisi, «Kamalak» sardori:*

— Bugun men yozgi ta'tilni qanday o'tkazayotganim haqida hikoya qilmogchiman:

Yozgi ta'tilni qishloqda o'tkazyapman. Bobom va buvijonimning bog'dagi ishlarida qarashyapman. Yangi-yangi do'stlar ham orttirdim. Har kuni kechqurun buvijonim bizga qiziq-qiziq ertak va hikoyalar so'zlab beradilar. Bobojonim esa hunar kishini ulug'laydi, deya menga duradgorlik kasbini o'rgatyaptilar. Behuda so'zlardan saqlanishga, insonlarga doimo yaxshiliklar qilib yashashga undaydilar.

Bir kuni singlim Mahfuzaxon gazetadan kema yasayman, deb qoldi.

— Men senga gazetadan emas, boshqa qog'ozdan kema yasab beraman, dedilar buvim.

Nega endi boshqa qog'ozdan? Gazetadan rangli, chiroqli kema chiqadi-ku, — ajablandi singlim.

— Shu birgina gazetani chiqarish uchun qanchadan-qancha insonlarning mehnati singadi, axir.

— Ular nimaga gazeta chiqarishadi? — so'radi yana singlim.

— Ularning maqsadi xalqqa ma'rifat, ezbilik ulashishdir. Shuningdek, bizga yangi-yangi axborotlar yetkazishdan iborat, ona qizim, — javob berdilar buvim.

Buvim bilan singlimming suhbatiga guvoh bo'lganidan buyon gazeta va jurnallarni qadrlaydigan bo'ldim. Axir ular aqlimizni charxlaydi, bo'sh vaqtimizga mazmun bag'ishlaydi.



TAHRIRIYATDAN:

Mana, aziz o'quvchilar, tengdoshlaringiz fikri bilan tanishib chiqdingiz. Xo'sh, bu borada sizning fikringiz qanday? Sizda qanday taklif bor? Maktublaringizni kutamiz.

Solijon aka ko'z kasalliklari shifoxonasida anche yotib davolandi. Nihoyat, shifo topib, uyiga qaytadigan bo'lib qoldi. Ammo og'ir, bosiq bu odam nimagadir uyiga ketishga oshiqmas edi. O'ziga bog'liq bo'limgan bir narsa ipsiz bog'lab turardi. Uning o'y-fikri jarrohlik xonasida. Kasalxona yo'laktari bu kuni birmuncha tinchib qoladi. Sababi, oq xalat kiyganlarning ko'pchiligi ichkarida bo'lishadi. Solijon akaning o'y-

xayollarini jarrohlik xonasida ham deb bo'lmas edi. U go'yo shaharning ko'p qavatli uylari orasida Sherzod degan bolani izlardi. Sherzod yerga ursa ko'kka sapchiyidigan, tinib-tinchimas bola. Maktabga ham yolchitib bormaydi. Og'zidan saqich, qo'lidan cho'zma tushmaydi. Cho'ntagi to'la tosh. Undan uchib-qo'nib yurgan qushlar ham bezillaydi. U halitdan «toshbag'ir» deb nom chiqargan.



Adib bobolaringiz nima uchun sizlarga atab hikoya, ertak va she'rlar yozishadi? Yozishmasa ham bo'lardiku! Ular yozishmasa, biz nimani o'qiyimiz, deya mug'ombirona jilmayasiz. Mug'ombirona deganimga xafa bo'lman. Bu bor gap. Siz meni bilib turib atayin shu gapni qo'zg'atyapsiz, deyishgacha borarsiz. Mayli, bunisiga ham rozimiz. Ammo bugun oltmish yetti yoshdan oshgan Erkin Malik bobongiz: «Biz bolalar uchun ko'proq yozishimiz kerak», demoqdalar. U kishi shu yoshda ham «Sharq» nashriyot-matbaa aksionerlik kompaniyasi Bosh tahririyatida faoliyat ko'rsatib, ertak, qissa va hikoyalar yozish bilan birga, juda ko'plab kitoblarga muharrirlik qilmoqdalar. Muallifning «Bugunning dadajonlari – ertanining qahramonlari», «Champo otli ilon», «Shaytonvachchaning nayranglari», «Subhidam hikoyalar», «Ona shahrim – Toshkentim» kabi o'ndan ortiq kitoblari nashr etilgan. «7-a da qayta qurish» kitobi uchun O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining G'afur G'ulom nomidagi mukofotiga va uzoq yillardavomidagi xizmatlari uchun «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist» unvoniga sazovor bo'lgan.

Ha, aziz bolalar!

Kattalar sizni o'yaydi... Siz uchun ular tunlarni tongga ularashib, uyqudan voz kechib, uzoq zahmat chekadilar. Ana shu zahmatlar evaziga turli ertak, qissa va hikoyalar yuzaga keladi. Shuni bilingki, yaratish qiyin, o'qish esa oson. Lekin orangizdag'i ba'zi o'rtoqlaringiz shuni ham istashmaydi. Unutmaslik lozimki, dunyoning butun hikmatlari kitobdadir. Kitob o'qigan bola kelajakda obro' ham, halol boylik ham topadi.

– Bolalarimiz ana shuni anglashlari kerak! – deydi Erkin bobongiz.

Biz esa ularga ma'qul bo'ladigan katta-katta asarlar yaratishimiz lozim. Bu ishga nafaqat bolalar adiblari, balki boshqa ijodkorlar ham qo'shilishlari kerak. O'z paytida Lev Tolstoy bolalar uchun «O'qish kitobi»ga o'xshagan darslik kitoblar yozib berib, juda katta himmat ko'rsatgan edi. Dunyoning boshqa adiblari ham bolalar uchun juda ko'pyaxshi asarlar yozib berishgan. Demak, bolalar uchun nafaqat biz, balki hammamiz, barcha ijodkorlar birligida harakat qilishimiz lozim. Chunki O'zbekiston bitta. Uning bolalari esa bizning ertamiz, yorqin kelajagimiz. Shunday ekan, bir yoqadan bosh chiqaradigan payt keldi. Bugun bolalar uchun ko'proq yozaylik! Ertaga hisob-kitob qilinganda, uyalib qolmaylik, demoqchiman!

To'lqin HAYIT

**Assalomu alaykum, qadrli «Tong yulduzi»!
Sening har bir soningni intazorlik bilan kutaman. Sahifalarining she'rlar-u hikoyalarni maroq bilan o'qiyman. O'zim ham kichik-kichik hikoyalar yozishni yaxshi ko'raman. Bugun ayrim mashqlarimni senga yuborayapman. Agar ularni chop etsang, sendan juda minnatdor bo'lardim.**

Bugun hammamiz barvaqt uyg'ondik. Apil-tapil nonushta qildig-u yo'lga otlandik. Ochig'i, tog'am bilan asal yig'ishiga ketayotganimizdan juda xursandmiz.

Negaki, asalari qutilari tog' yonbag'rida, juda bahavo yerda joylashtirilgan. Qolaversa, to'yib-to'yib asal yeyishga nima yetsin?! Oyim asalarilardan himoya vositasi – to'ri qalpoqlarni bizga bera turib, ogohlantidilar.

– Bolalar, esingizda bo'lsin, sizlar dam olgani yoki o'yaganani emas, tog'angizga yordamlashgani, hasharga ketyapsiz.

– Bordiyu ham ishni, ham dam olishni qoyil qilsak-chi?! – dedi akam hazil aralash.

– Mayli-ya, lekin chegaradan chiqmanglar. Aks holda... – dedilar oyim qat'iy ohangda.

– Kechirasiz, chegaradan chiqsak, qanday jazo bilan «siylaysiz?» – yana mahmadonalik qildi akam.

– Jazoni men emas, asalarilar berishadi...

Eshik qo'ng'irog'i chalinib, suhabatimiz bo'lindi. Tog'am ke'dilar.

Xolavachchamiz Bobur ham biz bilan boradigan bo'ldi. Va niyoyat, quyosh ilk zarrin nurlarini socha boshlagan mahal tog' yonbag'riga yetib keldik. Tezda ishga kirishdik. Singlim ikkimiz tushlik tayyorlaydigan bo'ldik. Tog'am, akam va Bobur asalari qutilarida asal yig'ilgan uyachalarini olib kelib, avvaliga mumni, so'ngra, maxsus moslama yordamida asalni ajratib ola boshlashdi. Hammamiz astoydil ishladik. Tushlik tayyorbo'lguncha, chamasni o'n kiloga asal ajratib olishdi.

– Barakalla, juda yaxshi ishladinglar, – dedilar tog'am. – Tushlikdan so'ng ikki soat dam olamiz. Keyin yana ishga kirishamiz...

NIMA QILIB QO'YDING, SHERZOD?



Ajab, Sherzod haqida ko'pchilik nega shunday deb o'yaydi? U dunyoga shunaqa bo'lib kelganmi?

Sherzod kamdan-kam xursand bo'lib yuradi. U uyiga kirishga shoshilmaydi. Ko'chada yuraversam deydi. Adasi ichadi, oyisi bilan urish-janjal qilaveradi.

Sherzod ham adasiga o'xshab o'rtoqlariga baqiradi, arzimagan narsani bahona qilib ularni do'pposlaydi. Ulug'bekni ham tutvolib urdi. Ulug'bek uyiga qochib chiqidda, balkondan turib uni so'kdi. Shunda Sherzod cho'zmasini ishga soldi. Tosh Ulug'bekning o'ng ko'zini jarohatladi.

Ulug'bekni Solijon aka yotgan xonaga olib kirishdi. Ular shu yerda tanishishdi.

– Isming Ulug'bek ekan. Ulug'bek kimligini bilasammi? – deb so'radi Solijon aka.

– Bilaman, u kishi podsho bo'lganlar, keyin yulduzlarini ko'p o'rganganlar. Men ham yulduzlarini o'rganishni yaxshi ko'raman.

– Qiziq-ku, – dedi Solijon aka, – yulduzlarini qandoq qilib o'rganib bo'ladi?

– Qutb yulduzini bilasizmi?

– Eshitganman, lekin u haqda hech narsa bilmayman.

– Kechasi adashib qolgan odamlar, kemalar, hatto qushlar ham Qutb yulduziga qarab yo'llarini aniqlab oladilar, – dedi Ulug'bek.

– Mabodo sen Cho'lpon yulduzi haqida gapirmayapsanmi? – so'radi Solijon aka.

– Cho'lpon yulduzi boshqa. Qutb yulduzi boshqa. Cho'lpon yulduzi tong mahali ko'rindi. Qutb yulduzi kechasi bilan bir joyda turadi. Osmondag'i

hamma yulduzlar uning arofida aylanishadi. Qutb yulduziga qarab boshqa yulduzlarning harakati o'rganiladi.

– Qoyil, – dedi Solijon aka hayratga tushib, – ismingga munosib bola ekansan.

Ular o'tasda bunaqa suhabatlar tez-tez bo'lib turar, Ulug'bekning quvnoqligidanmi, ko'zidagi jarohati ham yodidan ko'tarilib ketardi. Biroq, Ulug'bekning o'ng ko'zi kun sayin ich-ichiga botib borardi.

– Sen o'ng ko'zingni ochib yur. Bo'lmasa, tuzalgandan keyin ham ko'zingni qisib yuradigan bo'lib qolasan, – deb dashnom berardi Solijon aka.

Ammo Ulug'bekni oldinda jarohlik ishi kutayotganini eslagonda, Solijon akaning yuragi orqaga tortib ketardi. Nahotki...

Bugun Ulug'bekni operatsiyaga olib kirib ketishdi. Aksiga olib, Solijon akaga javob tegdi. Solijon aka xonani bo'shatdi-da, yosh do'sti Ulug'bekni kuta boshladi. Ishqilib yarim jon bo'lib qolmasin-da! Shu yoshda dunyoga bir ko'z bilan qarab qolmasin-da... Nima qilib qo'yding, Sherzod??

Erkin MALIK

– Suvga, suvgaga tush, ikkoving ham tezda suvgaga tushlaring, – deya bor ovozda baqirdilar.

Arilar qutisi ichida talanib ketgan akam hovuz tomon yugurdi. Bobur ham uning ortidan chopdi. Ikkovlon suv ichidagini arilar ta'qibidan qutulishdi.

Muzdek tog' suvida «cho'milib», dag-dag qaltilayotgan akam bilan Bobur atrosga olazarak qarab, ho'l kiyimlarida mashina tomon yurishdi. Arilar ularni shunday chaqib tashlaganki, yuz-ko'zlariga qarab bo'lmasdi.

Yo'l-yo'lakay o'z qilig'idan pushay-mon bo'lib:

– O'ziyam chegaradan chiqib ketdik, – dedi.

Shunda singlim:

– Ajab bo'lsin, arilar boplab jazolashdi oyim aytganlaridek, – dedi kattalardek biyron ohangda.

Hammamiz kulib yubordik.

– Bu hammangizga saboq bo'lsin, – dedilar tog'am.

Shundan keyin sira chegaradan chiqmaydigan bo'lidi.

**Madina MIRZA AHMEDOVA,
Namangan viloyati,
Yangiqo'rg'on tumanidagi
33-maktabning 8-sinf o'quvchisi**



JAZO

Hamma ishtaha bilan ovqatlandi. Undan so'ng, akam bilan Bobur nimalarnidir pichitlashib, asalari qutilari tomonga ketishdi. Tog'am pinakka ketgani uchun men ham ularning ortidan bordim.

– Qara, shu qutidan boshlab huv oxirigacha uylarga tegilmagan. Eng ko'p asal yig'ilgan uyani topganga ikkita muzqaymoq... Boshladik.

Men ularni to'xtatishga urindim, biroq, foydasi bo'lmasdi. Bir tomondan akam, ikkinchi tomondan Bobur qutilarni shosha-pisha ko'ra boshlashdi.

Ularning bu qilig'i arilarga yoqmadidi chog'i, bezovtalanib, g'uv-g'uv uchishga tushishdi.

– Bobur, mana bu uyani qara, asal qancha ko'pyig'ilgan-a?! Bo'ldi, ikkita muzqaymoq sendan, – dedi akam xursand bo'lib.


– Yo'q, bunaqasi ketmaydi. Hali hammasini qarab ko'rganimiz yo'q. Darrov g'irromni boshlaysan-a!

Akam bilan Bobur g'ijirlashib ketishdi. Bobur jahl aralash yonidagi qutini mushtaldi. Ana shunda... arilar to'dasi Bobur bilan akamni chunonam talay ketdiki, asti qo'yaverasiz... Men arang o'zimni qutqarib, tog'anni yordamga chaqirish uchun yugurdim. «Dod-voy» tovushlardan tog'am ham nima qilarini bilmay qoldilar. Keyin esa:



2008 Tong yulduzi
4-avgust

G'atalabaning otis manzili



QIT'A POLVONLARI - MEHMONIMIZ

Yana sanoqli kunlardan so'ng, Xitoy poytaxti Pekin shahrida XXIX yozgi Olimpiya o'yinlari boshlanadi. Mazkur sport anjumanida yurtimizning bir qator polvonlari ham gilamga chiqishadi.
Jumladan, erkin kurashchilarimiz Qurbon Qurbonov, Artur Taymazov, Zaurbek Soxiyev, Dilshod Mansurov, Soslan Tigihev, yunon-rum bo'yicha Eldor Hafizov, David Soldadaze hamda Dilshod Oripov ayni paytda so'nggi mashg'ulotlar bilan band.

O'zbekiston polvonlar yurti. Hamyurtlarimiz xalqaro maydonlarda kurashning qator turlaridan doimo g'alaba quhib kelishgan.

Olimpiya sport turlari sirasiga kirgan erkin va yunon-rum kurashi bo'yicha ham natijalarimiz havas qilarli darajada.

Birgina yozgi Olimpiya o'yinlarining o'zi bunga guvohdir.

Sportchilarimiz 1996-yildan buyon yozgi Olimpiya bahslarida mustaqil O'zbekiston bayrog'i ostida ishtirok etib kelishadi. O'sha yili AQSHning Atlanta shahrida o'tgan nufuzli sport anjumanida hamyurtimiz dzyudochi Armen Bagdasarov kumush, boks ustasi Karim To'laganov bronza medaliga sazovor bo'lgandi.

Erkin va yunon-rum kurashchilarimiz esa mazkur Olimpiadada o'z mahoratlarini oshirishadi.

Oradan to'rt yil o'tib, Avstraliyaning Sidney shahri mezonlik qilgan Olimpiada bahslarida erkin kurashchimiz Artur Taymazov ko'ksini kumush medal bilan bezadi.

2004-yil Gretsiyaning Afina shahrida o'tgan navbatdagi yozgi Olimpiya o'yinlarida medallar soni yana-da ko'paydi. Erkin kurashchimiz Artur Taymazov oltin, Magomed Ibragimov esa kumush medal sohibi bo'ldi.

Yunon-rum kurashi ustasi Aleksandr Dokturashvili ham barcha raqiblarini mag'lub etib, musobaqa shohsupasining eng yuqori cho'qqisini egalladi. Murabbiylarning Olimpiadadan-olimpiadagacha tajribasi oshib kelayotgan kurashchilarimizdan umidlari katta.

Dongdor Olimpiada polvonlariga munosib o'rinosbosarlar yetishib kelyaptimi? Yaqinda poytaxtdagi «Universal» sport saroyida erkin va yunon-rum kurashi bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tgan Osiyo birinchiligidagi ushbu savolga javob topdik.

Ushbu bahslarda qit'aning 14 davlatidan eng kuchli yosh kurashchilar gilamga chiqishdi.

Ayniqsa, yunon-rum kurashchilarimiz tomonidan erishilgan muvaffaqiyatlar e'tiborimizni tortmay qolmadı.

Yunon-rum kurashi bo'yicha Respublika olimpiya zahiralari kolleji va O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi Bosh murabbiyi Olim Qurbonov shogirdlari birinchilikda 8 ta oltin, bitta bronza medaliga erishishdi.

Erkin kurashchilar bahsida esa hamyurtlarimizdan 46 kg. vazn toifasida gilamga chiqqan Nodirjon Safarov oltin medalga erishgan bo'lsa, Jamshid Ahatov, Subhon Toshpo'latov, Amirxon Mirzayev va Arslonbek Gadoyev finalda imkoniyatni boy berishdi. Biz Osiyo championi Nodirjon Safarovni g'alaba bilan qutladik.

- Men Respublika olimpiya zahiralari kollejining 1-bosqichini tugatdim. Osiyo birinchiligi mezonligining O'zbekistonga ishonib topshirilishi bizni juda quvontirdi. Musobaqaga jiddiy tayyorlangan edim. Oltin medal olganimdan xursandman. Bu Osiyo birinchiligidagi 2-oltin medalimdir. O'tgan yili Xitoy Taypeyi davlatida o'tgan qit'a birinchiligidagi ham 42 kg. vaznda g'oliblik nasib etgandi.

Darhaqiqat, terma jamoamiz a'zolari Osiyo birinchiligidagi yomon qatnashishmadı. Yuuqlar bilan birga kamchiliklarimiz ham bo'ldi. Endi murabbiy va sportchilar oldidagi xalqaro musobaqlarda yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etishga harakat qilishadi. Zero, championlik yo'li uzoq va og'irdir.

Ma'mura MADRAHIMOVA

Pazanda qiz



MAYIZLI O'RAMA

5 dona tuxum sarig'iiga 5 oshqoshiq qand upasini qo'shib, oqarguncha aralashtiriladi. Masalliqqa tuxum oqi va 5 oshqoshiq un qo'shib boriladi. Gaz patnisiga yog' surtiladi va yupqa yog'li (pergament) qog'oz ustiga qorishmani 1-1,5 sm. qalinlikda asta qo'yiladi. Yaxshi qizdirilgan gaz pechida 25 daqiqa davomida pishiriladi. Pergament qog'oz ohista olinib, xamir o'rama shaklida bukiladi. Sovigach, qayta ochilib, mayizni biron xil quyuq murabboga aralashtirib suriladi-da, yana o'rama shaklida buklanadi. O'rama sirtiga qand upasi sepiladi.

SHIRIN KULCHA

Tuxum sarig'i shakar va yog' bilan yaxhilab aralashtiriladi, un, ozgina vanilin qo'shib, qattiqroq xamir qoriladi. Xamirdan turli shakllar kesib olinadi va qizitilgan gaz pechida 15-20 daqiqa davomida pishiriladi. Tayyor shirin kulchani idishlarga solib, yuziga qand upasi sepiladi.

TVOROGLI PISHIRIQ

Shakarga sariyog' aralashirib turilgan holda bittadan tuxum chaqib ko'pirtiriladi. So'ng, unga tuz, bir choy qoshig'ida iste'mol sodasi, vanilin, ezilgan tvorog, yong'oq mag'izi hamda un qo'shib xamir qoriladi. Xamir maxsus idishga joylanib, qizigan gaz pechida 45 daqiqa davomida pishiriladi.

Pishiriq uchun 100 grammin sariyog', 200 gramm shakar, 250 gramm tvorog, 250 gramm un, 2 oshqoshiqda yong'oq mag'izi, 2 dona tuxum bo'lsa, kifoya.

TEZ PISHADIGAN PISHIRIQ

Tuxumning oqi shakar bilan aralashtiriladi. Iste'mol sodasi, un, masalliq qorishiriladi. Masalliq pergament qog'oziy yoyiladi, ustidan yog' surtiladi.

Olmaning po'sti artiladi, urug'i olib tashlanadi va maydarloq to'g'raladi-da, pergament qog'oz ustiga yoyib qo'yiladi. Xamir patnisiga quyilib, qizdirilgan gaz pechida 15-20 daqiqa pishiriladi. Tez pishadigan pishiriq uchun 6 dona olma ishlataladi.

NARGIZA tayyorladi

*Aziz qizlarjon, yozgi ta'til kunlaringiz maroqli o'tyaptimi?
Zerikib qolmayapsizmi?
«Pazanda qiz» ruknimiz orqali tayyorlanishi haqida maslahatlar bermoqchimiz. Ularni mustaqil pishirib ko'ring. O'rganganingiz o'zingizga foyda bo'lsa, xizmatdan charchab, horib kelgan onajonin-gizning quvончи cheksiz bo'lishiga, biz kafil!*

BILIB QO'YGAN YAXSHI

Foydali maslahatlar

Yoqa, yeng uchi va kiyim-kechakning boshqa yog' bosgan joylarini, shuningdek, mebel qoplamasidagi dog'larni achchiq choy bilan artib tozalanadi.

Oq narsalarga to'kilgan siyoh dog'ini limon sharbati bilan tozalash mumkin.

Sut, kofe, kakao, sous, baliq dog'lari, sovuq suvgaga kir yuvish kukunidan solib, 2 soat tindirib yuviladi. Ularni benzin va atseton bilan ham ketkazish mumkin.

Agar klyonka-dasturxonda siyoh dog'i bo'lsa, uni ho'llab, ustiga tish yuvish kukunini sepiq qo'ying, birozdan so'ng artib tashlasangiz, kifoya.

Deraza oynasini maydalangan bor yoki yarim stakan suvgaga 2 qism tish yuvish kukuni solib artilsa, yaltirab ketadi. Buning uchun aralashmani latta bilan oynaga surtib, qurigandan so'ng yumshoq g'ijimlangan qog'oz bilan artib tashlang.

Chumolidan qutulish uchun shakar, qand, murabbo, asal idishlarining chetiga kungaboqar moyi surtib qo'ying. Xamirturushni suvda eritib, murabbo yoki shakar solib, oshxonaga qo'yilganda ham chumoli qirilib ketadi. Chumoli yangi karamni hidini ham yoqtirmaydi. Qotgan nonni maydalab, 10 foizli tanakor eritmasida ivitib qo'ysangiz, uning hidi ham chumolilarni qochiradi.

MANZURA tayyorladi

Aziz bolajonlar! Sizlarni «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali g'oliblari bilan tanishirishda davom etamiz.



BUGUNNING «YANGI AVLOD»LARI

Tanishing: Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi «Viloyat o'quvchilar ijodiyoti markazi» qoshida tashkil etilgan «Surxon qizlari» raqs dastasi.

2007-yil ushbu guruh uchun omadli bo'ldi. Guruh «Yangi avlod - 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'olib bo'ldi.

«Surxon qizlari» dastasi viloyatdagi ommaviy tadbirlarda, ko'rik-tanlovlarda o'zlarining jozibali raqslari bilan ishtiroy etib,

ko'plab yutuqlarni qo'liga kiritib kelmoqda.

Guruh 2006-yilda «Osiyo taronalari» xalqaro bolalar festivali g'olib bo'lgan.

«Surxon qizlari» dastamizda yosh iste'dodli, san'atga alohida mehr qo'yan qizlarimiz bisyor. Biz ularning har biri bilan faxrlanamiz va ularning qobiliyatiga qarab to'g'ri yo'nalish berishga harakat qilamiz. Ayni paytda dastamizga 30 dan ortiq qizlar qabul qilingan. Ular bilan turli xil raqslar



sahnalashtiramiz va viloyatda o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlarda faol qatnashib kelmoqdamiz, — deydi dasta rahbari Zamira opa Niyoziya.


Guruh «Asrlar sadosi» festivalida ham qatnashgan.

«Yangi avlod - 2007» bolalar ijodiyoti festivali guruh uchun ko'plab imkoniyatlar eshigini ochdi. Ular ko'plab do'stlar orttirishi, shuningdek, tajriba almashish imkoniyatiga ega bo'lilar.

Nazokatxon TOJIBOYEVA

«SPORT O'YINLARI» RASMLI KROSSVORDI

Aziz muxlis! Suratlardagi sport o'yinlari va turlari nomlarini kataklarga raqamlari xonalardan boshlab yozish bilan krossvordni hal qiling.



Foziljon ORIPOV tuzdi

POLVONJON



MEHMONIMIZ!

«Polvonjon» kim bo'ldi ekan-a, deysizmi? Kim emas, u siz sportsevar bolajonlar uchun chop etilayotgan yangi sport jurnali. Rangli tasvirdagi 16 betdan iborat bo'lgan bu jurnalni o'qisangiz, hecham zerikmaysiz. Boisi, unda «Polvonjon»ning kun tartibidan tortib, bobolar-u momolarimiz sevib o'ynagan milliy o'yinlarimizgacha bor. «O'qib, zavq oling» sahifasida taniqli bolalar adiblarining ijodi bilan tanishsangiz, «Yosh sportchi tengdoshlarim» sahifasi orqali sportda ulkan yutuqlarni qo'liga kiritayotgan tengdoshlaringiz bilan tanishasiz. «Aqliy gimnastika» sahifasi esa aqlingizni charxlabgina qolmay, til o'rganish borasidagi bilimlaringizni boyitadi. Zerikib qolsangiz, «Polvonjon ijodi» sahifasiga murojaat qiling. Undagi xandalarni o'qib, miriqib kulasiz...

Xullas, yangi jurnal muborak, aziz bolajonlar!

Savollar:

1. Xamirli taom.
2. Salom javobi.
3. Soniya, on.
4. Ulamo.
5. Ko'mak.
6. Onalar qo'shig'i.
7. Pardoz ashysi.

S	1	A	2	L	3	O	4	M	5	A	6	T	7

Dilnoza EGAMBERDIYEVA tuzdi



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahilafolochi:
Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchi:
Gulyuz ORIFJONOVA

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
garashli bo'Imagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
((«O'zbekiston» NMIU Bosh
muharrir o'rinnbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 22755
Buyurtma N: J 5722